


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60310100 – *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)* bakalavriat ta'lim
yo'nalishining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil " 4 " 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.2. 60310100 – <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
2.4. Kvalifikatsiya.....	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i	11

1. 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining tavsifi

60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60310100 – *Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlari (sillabus)ni ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi - fan va ishlab chiqarish sohasidagi, qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy jarayon va salohiyatni o‘rganadigan ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq boshqa ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va qishloq hududlarida makro-mikroiqtisodiy rivojlanish va uni tartibga solish mexanizmi, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutaxassislik qobiliyatiga hamda milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi va yo‘nalishlari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- iqtisodiyotning qishloq xo‘jalik korxonalari, shuningdek, agrofirmalar, agroklastlar, fermer, dehqon va shirkat xo‘jaliklari, kooperativlar;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tayyorlash va qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy faoliyat jarayonini, boshqa mulkchilik shaklidagi korxonalarni boshqarish va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini ta’minlash;

- qishloq hududlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar, moliyaviy muassasa va jamg‘armalar;

- shuningdek, turli sohalardagi biznes-jarayonlar, bozorda yuzaga kelgan vaziyatni

baholash, keng qamrovli tadbirkorlikni tashkil etish va boshqarish, innovatsion boshqaruv g'oyalari qishloq va shaharlarda amalga oshirish jarayonlari ham kasbiy faoliyat ob'ektlari hisoblanadi.

60310100 – *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60310100 – *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *tashkiliy-boshqaruv.*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish:*
- *axborot-tahiliy faoliyat;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. 60310100 – *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60310100 – *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- qishloq xo'jaligi korxonalari xo'jalik moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalari (dasturlarini) ishlab chiqish;
- moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlar normativini ishlab chiqarish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt va uning buyruqlari faoliyatini iqtisodiy tahlil hamda hisob-kitob qilish;
- qishloq xo'jaligida mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, jarayonlarga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, soha bo'yicha ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;
- xo'jalik faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini olib borish uslublari va vositalaridan foydalanish;
- faoliyat shartnomalarini tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash;
- ishlab chiqarish va sotish faoliyatiga oid tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish;
- hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;
- qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiy faoliyatini ratsional tashkil etishda mamlakatimiz va horijiy tajribasini o'rganish;
- ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etish;
- ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblarni va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;
- mehnatni muxofaza qilish norma va qoidalariga amal qilish;
- qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
- qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar echimlarini amaliyotga tadbiq etish;

- qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarish jarayonlarida iqtisodiy va moliyaviy faoliyatini boshqarish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- qishloq xo'jaligi korxonalari ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishning natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;
- qishloq xo'jaligi korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarini rejalashtirish va bajarish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo'lgan moddiy va moliyaviy resurslarni rejalashtirish;
- qishloq xo'jaligi korxonalari bilan infratuzilma sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligida investitsion faoliyatini jadallashtirish maqsadida loyihalar ishlab chiqish;
- qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tahlil qilish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini qo'llash;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishning istiqbolli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;

- qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari raqobat strategiyalarini ishlab chiqish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- iqtisodiyotning qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;
- qishloq xo'jalik iqtisodiy ma'lumotlarini tahlil qilish va umumlashtirish;
- qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;
- qishloq xo'jalik korxonalari ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- qishloq xo'jaligidagi tarmoq va korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;
- agrar va atrof-muhit iqtisodiyotidagi yoki biznes jarayonlarini boshqarishdagi jarayonlar va omillarning o'zaro munosabatlarini tahlil qilish va tanqidiy baholash;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va texnik vositalaridan foydalanish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;
- qishloq xo'jaligi korxonalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlarini, maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni urganish;
- qishloq xo'jaligi korxonalaridagi muammolar mavzulari bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar xaqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan xolda qidirish va topish;
- ta'lim yo'nalishidagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soxa adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli taxlil qilish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;

- ilmiy muammolar echimi natijalarini amaliyotga joriy etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- o'z biznesini yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. 60310100 – *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatini dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy xujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzulmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga etakchilik qilishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;

- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- buxgalteriya siyosati va tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo'lish;

- biznes jarayonlarni modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakaviy amaliyot o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4320	144
Tanlov fanlar	1800	60
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	360	12

2.3.2. 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4320	144	
1.01	APPMAT16	Amaliy matematika 1	180	6	1
1.02	ECOTHE6	Iqtisodiyot nazariyasi	180	6	2
1.03	ICTECO6	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	180	6	1
1.04	APPMAT26	Amaliy matematika 2	180	6	2
1.05	FORLAN16	Xorijiy til 1(ingliz, fransuz, nemis, koreys)	120	4	1
1.06	FORLAN26	Xorijiy til 2(ingliz, fransuz, nemis, koreys)	180	6	2
1.07	LANGUA4	O‘zbek(rus) tili	120	4	1
1.08	HISSET2	Iqtisodiy ta’limotlar tarixi	120	4	2
1.09	PHILOS4	Falsafa	120	4	1
1.10	MRHUZ4	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.11	RELST4	Dinshunoslik	120	4	2
1.12	CRETHI6	Kreativ fikrlash	180	6	1
1.13	STATIS6	Statistika	180	6	3
1.14	INTECON6	Ekonometrikaga kirish	180	6	4
1.15	BUSMAT6	Biznes matematika	180	6	3
1.16	MICROE6	Mikroiqtisodiyot	180	6	3
1.17	MACROE6	Makroiqtisodiyot	180	6	4
1.18	MANAGR6	Qishloq xo‘jaligida menejment	180	6	3
1.19	CROPRO6	O‘simlikshunoslik	180	6	4
1.20	AGRPF6	Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi	180	6	3
1.21	GREECO6	“Yashil” iqtisodiyot	180	6	5
1.22	FUNFIN6	Moliya asoslari	180	6	6
1.23	TAXATI6	Soliq va soliqqa tortish	180	6	6
1.24	AGRPT6	Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish texnologiyasi	180	6	6
1.25	ECOAP6	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish iqtisodiyoti	180	6	5
1.26	RESMS6	Tadqiqot usullari va ko‘nikmalari	180	6	8
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1800	60	4,5,7
		Jami	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	720	24	6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	360	12	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya: iqtisodchi (qishloq xo‘jaligida)

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:


kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, kompetensiya, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti




Rektor  **K. Sharipov**

202_ yil " _ " _

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**



Direktor  **Sh. Yakubov**

202_ yil " _ " _

M.O'.

**Samarqand viloyat hokimining qishloq va
suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari**




 **Sh.F. Xudoyberdiyev**

202_ yil " _ " _

M.O'.

**Toshkent davlat agrar universiteti
1-prorektori**




 **S.Y. Islamov**

202_ yil " _ " _

M.O'.

**Samarqand viloyat Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**



 **I.I. Jabborov**

202_ yil " _ " _

M.O'.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 60310100-Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Samarqand viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari Sh.F.Xudoyberdiyev, Samarqand viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i I.I.Jabborov, Toshkent davlat agrar universiteti 1-prorektori S.Y.Islamov, birgalikda TDIU da ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60310100-Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti) ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini ishtirokining yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim soxasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Samarqand viloyat hokimining
qishloq va suv xo'jaligi masalalar
bo'yicha o'rinbosari**

Sh.F.Xudoyberdiyev

**Samarqand viloyat Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik bosh
boshqarmasi boshlig'i**

I.I.Jabborov

**Toshkent davlat agrar universiteti
1-prorektor**

S.Y.Islamov